

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11582288>

*TerDPI, O'zbek tili va adabiyoti
kafedrasi mudiri, dotsent
Mardonova Lobar Umaraliyevna*

Annotatsiya: Sohibqironning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari beqiyosdir. Tarix bu qo'hna dunyoda o'tgan ko'p jahongirlarni biladi, ammo ularning aksariyati faqat vayron qilgan, madaniyat, qadriyatlarni barbod qilgan, gullab-yashnagan o'lkalarni xarobaga aylantirgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr bo'yi bunyodkorlik bilan mashg'ul bo'lgan. Uning "Qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga o'n g'isht qo'ydirdim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'nta ko'chat ektirdim", degan so'zları buning yorqin isbotidir.

Kalit so'zlar: Shohizinda, me'moriy, majmua, shimoliy-sharq, siyosiy-ijtimoiy, faoliyat, saltanat

Sohibqiron Amir Temur – dunyo xaritasida juda katta hududni egallagan buyuk markazlashgan davlat asoschisi bo'lib, u Hindiston va Xitoydan Qora dengizgacha, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo'lting'igacha bo'lgan nihoyatda ulkan hududda misli ko'rilmagan sultanat barpo qilgan betakror tarixiy shaxs. Bundan tashqari Amir Temur davlatiga Kichik Osiyo, Suriya, Misr va shimoliy-g'arbda Quyi Volga, Don bo'ylari; shimoliy-sharqda Balxash ko'li va Ili daryosigacha; janubiy sharqda esa Shimoliy Hindistongacha bo'lgan mamlakatlar bo'ysundirildi. Amir Temur davlatni aql-zakovat vahuquqiy asos bilan idora etgan. Uning "...davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim", - degan so'zları buning yorqin dalilidir.

Amir Temur uchun har bir zafarli voqeа va sevinchli hodisani muhtasham me'morlik obidasi barpo etish bilan nishonlash odат bo'lgan. Shu maqsadda Hindiston, Sheroz, Isfahon va Damashqning mashhur usta-hunarmandlari mamlakatda hashamdar imoratu inshootlar bino qilganlar. Amir Temur zabit etgan mamlakatlarning bir qator shaharlari (Bag'dod, Darband, Baylaqon)ni qayta tikladi. Amir Temur Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag'dodda madrasa, Turkistonda mashhur shayx Axmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurdirgan bo'lsa-da, lekin asosiy e'tiborini ona shaxri Kesh va poytaxti Samarqandga qaratdi. Keshda otasining qabri ustiga maqbara, o'g'li Jahongirga maqbara bilan masjid qurdirdi. Amir Temur hukmronligining ilk davrida Kesh shahrini poytaxtga aylantirish niyatida bo'lib, uning obodonchiligiga katta ahamiyat berdi, bu yerda mashhur Oqsaroy qad ko'tardi. Amir Temur Keshni Movarounnahrning madaniy markaziga aylantirishga harakat qildi. Shu boisdan bu shahar "Qubbatul-ilм val-adab" unvoniga ega bo'ldi. Saltanat poytaxti Samarqand Amir Temur davrida ayniqsa gullab yashnadi. Shaharda Isfahon,

Sheroz, Halab, Xorazm, Buxoro, Qarshi va Kesh shaharlarining me'morubinokorlari qo'li bilan saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar quriladi. Shahar tashqarisida esa bog'-rog'lar va bo'stonlar barpo etiladi. Xususan, Shohizinda me'moriy majmuasiga mansub Shodimulk og'o maqbarasi, Shirinbeko og'o maqbarasi quriladi. Shaharda Bibixonim jome masjidi, Amir Temurning qarorgohi Ko'ksaroy va Bo'stonsaroylar qad ko'taradi. Umuman olganda, Samarqand shahri Amir Temur davrida o'zining qadimiy o'rni Afrosiyob birmuncha janubroqda butunlay yangitdan qurildi. Shahar tevaragi mustahkam qal'a devori bilan o'ralib, Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangaron va Feruza kabi nomlar bilan ataluvchi oltita darvoza o'rnatildi. Mavarounnahrning dehqonchilik vohalarida, xususan, Zarafshon vodiysida o'nlab sug'orish tarmoqlari chiqarilib, dehqonchilik maydonlari kengaytirildi.

Yangi qishloqlar barpo etildi. Ibn Arabshohning yozishicha, Amir Temur Samarqand atrofida qad ko'targan bir qancha yangi qishloqlarni Sharqning mashhur shaharlari Damashq, Misr, Bag'dod, Sultoniya va Sheroz nomlari bilan atadi. Amir Temurning fikricha, Samarqand kattaligi, go'zalligi hamda tevarak-atrofining obod etilganligi jihatidan dunyodagi eng yirik shaharlardan ham ustunroq turmog'i lozim edi¹⁴. Hofizi Abruning yozishicha, Amir Temur turk, arab va eronliklar tarixini chuqur bilgan. U davlat ahamiyatiga ega bo'lgan har bir masalani hal etishda, shu sohaning bilimdonlari va ulamolari bilan maslahatlashardi. Odatda u tibbiyat, riyoziyot, falakiyat, tarix, adabiyot, tilshunoslik ilmi namoyandalari, shuningdek, ilohiyot va din sohasidagi mashhur ulamolar bilan suhbatlar o'tkazardi. Amir Temur saroyida ulamolardan mavlono Abdujabbor Xorazmiy, mavlono Shamsuddin Munshi, mavlono Abdullo Lison, mavlono Bahruddin Ahmad, mavlono Nu'monuddin Xorazmiy, Xo'ja Afzal, mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Xokiy va boshqalar xizmat qilardi. Alisher Navoiyga Amir Temurning ilm va ma'naviyat ahliga ko'rsatgan g'amxo'rligi juda yoqar edi. Bu haqda Navoiy shunday degandi: "Agar Temur qaerda fan, madaniyat va san'at ahlini uchratsa, ularni o'z homiyligiga olar, ularga izzat-ikrom ko'rsatar, ularning tarbiyasiga ahamiyat berar hamda bu zotlardan o'z oliy majlisida nadim (maslahatchi) sifatida va boshqa lavozimlarda foydalanardi".

Adabiyotshunosligimiz fidoyilaridan biri D.To'raev mazkur tetralogiya haqida fikr yuritar ekan, mutafakkir shoirning bu boradagi xizmatlariga shunday baho beradi: "Ulug' bobokalonimizning siyosiy-ijtimoiy faoliyati, sultanatining dovrug'i, insoniy qiyofasi va fazilatlari asrlar osha o'z millati badiiy tafakkurida jilolanib kelganini ham faxr bilan qayd etishimiz kerak. Mumtoz yozma adabiyotimizda Sohibqiron siymosi ehtirom ila tasvirlangan. Bu borada she'riyat mulkinining sultonii Alisher Navoiyning badiiy dahosi namunalidir"¹⁵. Darhaqiqat, Amir Temur to'g'risida Hazrat Navoiy yozib qoldirgan ma'lumot va fikrlar ham tarixiy fakt, ham temuriylar xonadoniga yaqin bo'lgan shaxs sifatida juda muhim ahamiyatga ega va qimmatlidir.

¹⁴ Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли -Т.: Фан. 1993. -Б. 27-28.

¹⁵ Тўраев Д. Улуг салтанатнинг ёрқин саҳифалари. "Улуг салтанат васфи". Т.: Mashhur press. 2017. -Б. 352.

Ta'kidlash joizki, Amir Temur davrida savdo va hunarmandchilik g'oyatda rivojlanadi. Yangi bozorlar, savdo rastalari barpo qilinadi. Ispan elchisi Klavixo Samarcand bozorlarida bug'doy va guruchning mo'lligi va arzonligi haqida gapirib, shahar hunarmandchiligi mahsulotlarini – atlas, kimxob, har xil ip va jun to'qima mollar, muynali va ipakli po'stinlar, attorlik mollari, ziravor va dorivorlar, zarhal va lojuvardlar hamda boshqa mollarning serobligini ham ta'kidlaydi. Bu davrda Amir Temur va uning joylardagi noiblari Xitoy va Hindistondan O'rta Osiyo orqali Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga jo'natgan asosiy xalqaro savdo yo'li – "Buyuk ipak yo'li"ni nazorat qilib, savdo karvonlari qatnovi xavfsizligini ta'minlashda, rabotlar, qal'alar, ko'priklar qurish yo'lida muhim chora-tadbirlar ko'rdilar va Sharq bilan G'arb o'rtasida savdo-sotiq va elchilik aloqalarini har tomonlama rivojlantirishga g'oyat katta e'tibor berdilar.

Amir Temur eng muhimi, Eron, Ozarbayjon va Iroqdagagi mayda hukmdorlar o'rtasidagi tarqoqlik va boshboshdoqlikka barham berib, bu bilan nafaqat Movarounnahr, balki Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga, xalqlar va mamlakatlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishga ulkan hissa qo'shdi. Amir Temur Yevropaning Fransiya, Angliya va Kastiliya kabi yirik qirolliklari bilan bevosita savdo va diplomatik aloqalar o'rnatdi.

Amir Temurning harbiy yurishlari, jangu jadallarining oqibatlariga baho berilar ekan, shuni alohida ta'kidlash kerakki, uning faoliyati qo'yilgan maqsad va rejalarini jihatidan ikki bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqich (1360-1386)da Amir Temur Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzish yo'lida kurashdi, Movarounnahrni birlashtirishdan manfaatdor bo'lgan mahalliy zodagonlardan iborat ijtimoiy kuchlar (mulkdor dehqonlar, harbiylar, hunarmandlar, savdogarlar va ruhoniylar) yordamida tarqoq mulklarni birlashtirish uchun kurash olib bordi. Amir Temurning budavrdagi faoliyati O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti taraqqiyoti yo'lida shubhasiz ulkan ijobjiy ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda tarqoqlik tugatilib, markazlashgan davlatning tashkil topishi ijobjiy samara olib keldi. Mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini va mo'g'ullarning bir yarim asrlik hukmronligi natijasida bo'hronga uchragan iqtisodni tiklash uchun qulayroq sharoit vujudga keldi. Ayni vaqtda xo'jalikning asosi bo'lgan dehqonchilikda muayyan siljishlar ro'y berdi. Yangi-yangi ariq (kanal)lar qazilib, dehqonchilik maydonlari kengaydi. Hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo rivojlandi, fan va madaniyat ravnaq topib, shaharlar obodlashdi va gavjumlashdi. Amir Temur biror mamlakatni tasarrufiga olishdan avval, albatta o'sha joy aholisiga tinchlik yo'lini taklif etgan, bu yo'l inkor etilgan holdagina harbiy kuch ishlatgan.

Amir Temur hayotligi chog'idayoq sultanatini asosan to'rt qism (ulus)ga bo'lib, o'g'il, nabiralariga taqsimlab bergan: Xuroson, Jurjon, Mozandaron va Seyiston (markazi Hirot) - Shohruhga, G'arbiy Eron, Ozarbayjon, Iraq va Armaniston (markazi Tabriz) - Mironshohga, Fors, ya'ni Eronning janubiy qismi (markazi Sheroz) - Umarshayxga, Afg'oniston va Shimoliy Hindiston (markazi G'azna, keyinchalik Balx) - Pirmuhammadta suyurg'ol qilib berilgan. Amir Temur davlati o'ziga xos tartib-qoidalarga asoslangan holda idora etilgan. Amir Temur asos solgan bu davlat Xuroson va Movarounnahrda XVI asr boshigacha mavjud bo'lib, Shayboniyxon tomonidan tugatilgan.

Amir Temur davrida Samarqand yangi qiyofa kasb etdi, o'nlab mahobatli binolar qad rostladi, qadim Sharq nafasi ufurib turgan obidalar shaharning qiyofasini butunlay o'zgartirib yubordi. Mo'g'ullar istilosи davrida, ya'ni 1220-1360 yillarda biror bir yangi bino qurilmagan, mavjud binolar ham xarob bir holga kelgan edi. 140 yillik katta tanaffusdan keyin Amir Temur Samarcandning iqtisodiy hayoti qizg'in qaynagan markazlardan biriga aylanishi uchun olib borgan tadbirlari tafsinga sazovor. 1403-1406 yillarda Kastiliyaning elchisi sifatida Samarcandda bo'lgan Klavixo bu haqda shunday yozadi: "Unda (Samarcandda) barcha narsalarni tartib bilan sotish uchun katta joy bo'Imaganligi sababli podshoh shahar bo'ylab katta ko'cha (rasta) chiqarishni, uning ikki tomonida esa mol sotish uchun do'konlar qurishni buyurdi. Bu ko'cha-rasta shaharning bir chekkasidan boshlanib, butun shaharni kesib o'tishi va uning ikkinchi chekkasigacha chiqishi kerak edi". Elchining so'zlariga ko'ra, podshoh bu vazifani ikki mirzoga topshirgan. Shunga ko'ra, qurilishga halaqit berishi mumkin bo'lgan uylar, kimniki bo'lishidan qat'iy nazar buzilgan, bir yumush tugashi bilan boshqa guruh ustalar navbatdagi ishni boshlashgan. Ish jarayoni uzluksiz, kechayu kunduz davom etgan. Shunday qilib, ko'chalar kengaytirilgan va ikki qavatli do'konlar qurilgan, ularning tepa qismi gumbaz shaklida bo'lgan. Ishga olishda talab qanchalik katta bo'lmashin, shu ishning malakali ustalarigina olingan va ularning ish haqi shahar hisobidan to'langan.

I.Mo'minov Amir Temur Samarcand atrofida bunyod ettirgan bog'lar to'g'risida batafsil to'xtalib o'tgan. Ma'lumki, o'rta asrlar rassomlari miniyaturlarida ham tasvirlangan bu bog'lar xususidagi ilk ma'lumotlar o'tmish tarixchilar, shoirlari, sayyoohlari asarlarida tilga olingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurakhmanov F., Mamajonov S. Uzbek language and literature. - T.; 2003.
2. Azamkhujaev S. Autonomy of Turkestan. - T.; 2003.
3. Тўраев Д. Улуг салтанатнинг ёрқин саҳифалари. "Улуғ салтанат васфи". Т.: Mashhur press. 2017. –Б. 352
4. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли -Т.: Фан. 1993. –Б. 27-28.
5. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Xonimova Maryam. (2024). BUYUK ZAMONDOSHLAR, MANGU YASHAGAY. PEDAGOGS, 57(1), 132–138.
6. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 676–680.
7. 10. Najibullo Sayfullayev. (2023). TERMS ARE AN INDIVIDUABLE WEALTH OF OUR LANGUAGE. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(10), 168–170.
8. Avriddinov Jobir Musulmon o'g'li, & Shonazarova Madinabonu Xamrobek qizi. (2024). RO'DAKIYNING SHE'RIYATI VA TILI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR. PEDAGOGS, 57(1), 143–146.

9. Sahkiba Saidmuradova, & To'lqinova Madina. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI POETIKASI. PEDAGOGS, 57(1), 147–152.
10. Parda Alimov. (2023). Muhammad Yusuf ijodida Vatan, ona, muhabbat mavzularining badiiy talqini. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(1), 63–75.
11. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO'Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. Scientific Impulse, 1(4), 34–37.
12. Qurbanova Gavhar Xurramovna, & Avazova Dilfuza. (2024). ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA O'XSHATISHLAR. PEDAGOGS, 57(1), 158–160.
13. Nigora Jo'ranaazarova Qurbanboy qizi, & Qahhorova Dinora Shuhrat qizi. (2024). XUDOYBERDI TO'XTABOYEV ASARLARIDA O'XSHATISH VA METAFORANING KONTEKSLARDAGI O'RNI. PEDAGOGS, 57(1), 161–167.
14. Nodira Hamidova. (2024). G'AFUR G'ULOM HIKOYALARIDA SO'Z IJODKORLIGINING LISONIY-KOGNITIV TAHLILI. PEDAGOGS, 57(1), 139–142.